

OGAHINYING ILMIY, ADABIY MEROSI. "RIYOZ UD-DAVLA" ASARI TAHLILI

Isaqova Mohlaroy

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya
va tillarni o'qitish: o'zbek tili
yo'nalishi 3-kurs 23.87- guruh talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Muhammadrizo Ogahiy hayot yòli va ijodi òrganildi. Tarixiy asarlari, jumladan "Riyozaud - davla" asari òrganildi va ma'lumotlar berildi.

Kalit sòzlar: Muhammadrizo Ogahiy, mirob, "Riyozaud - davla" , "Gulshani davlat" "Zubdat ut-tavorix".

Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo'lib, Navoiydan keyin eng “ko'p va xo'b” she'r yozgan shoirlardandir. Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlog'ida (Hozirgi Ogahiy nomli jamoa xo'jaligi) dunyoga kelgan. Otasi Erniyozbek vafot etgach, yosh qolgan Ogahiyning tog'asi Munis o'z tarbiyasiga oldi. Munis atrofiga to'plangan ijodkorlar bo'lg'usi shoir Ogahiy ijodiga katta ta'sir qildi. Ogahiy dastlabki bilimni Munis Xorazmiydan oldi, keyinchalik Xiva madrasalarida tahsil ko'rdi. Oldin maktabda keyin Xiva madrasasida tahsil ko'rgan va arab, fors, turk tillarini puxta egallagan. Ogahiydan boy ijodiy meros qoldi. U madrasada o'qib yurgan paytlaridayoq “Bayozi mutafarriqai forsiy” nomli bayoz tuzdi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy g'azallarini kiritish bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o'zining o'n besh g'azali va ikki muxammasini qo'shdi. Ogahiy 1872-yilda parokanda bo'lgan badiiy merosini jamlab “Ta'viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli devon tuzib qoldirdi.

Erniyozbek mirob 1812 yilda vafot qilgandan keyin Olloqulixon Shermuhammad ibn Avazbey mirob o'g'li Munisni mamlakatning bosh mirobi qilib tayinlaydi. Munis Ogahiyning amakisi bo'lib, otasi o'rnida Ogahiyga 1829 yilgacha g'amxo'rlik qilgan. Uning bolalik va yoshlik yillari Qiyot qishlog'ida o'tdi va ulg'aygach Xivadagi madrasalardan birida tahsil ko'rdi. Arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, shuningdek klassik musiqa hamda tarix fanini qunt bilan o'rgandi. She'riyat olamida uning taxallusi Ogahiy bo'lib, lug'aviy ma'nosi - ogohman-sergakman demakdir. U mohir hattot bo'lib kufiy, rayhoni, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. Xiva xoni Olloqulixonning Xurosonga qilgan safarida vabo kasali tarqalib (1829) amakisi Munis vafot etdi. Olloqulixon Ogahiyning Munisni o'rniga miroblik vazifasiga tayinlaydi.

Ogahiy jahon adabiyoti, madaniyatining nodir durdonalari sanalgan 20 dan ortiq asarlarni o'zbek tiliga o'girib tarjimashunoslik maktabini yaratdi. Ogahiy o'z hayoti davomida Xiva xonlari Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855-1855), Qutlug'murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. Ogahiyning o'zbek tilida yozilgan "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devoni mavjud bo'lib, unda shoir yashagan muhitning amaldorlaridan qattiq shikoyat qilib yozgan she'rlarini ko'proq uchratamiz. Ogahiy she'rlari orasida hukmdorlarga aytilgan qasidalar ham bor. Bu devondan g'azallar, mustazod, muxammas, musaddaslar o'rin olgan. Devonda 18 ming misra she'r va 83 muxammas jam qilingan.

Mohir tarjimon sifatida Munis tugallay olmay ketgan Mirxondning "Ravzat us-safo" asarining 2-3 jildlarini, Muhammad Mahdixonning "Nodirnoma" (5 jild), Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tazkirai Muqimxoniy", Nizomiddin Ahmad Haraviyning "Taboqati Akbarshohiy", Rizoqulixon Hidoyatning "Ravzat us-safoi Nosiriy" nomli asarlari, Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Husrav Dehlaviyning "Haft Bihisht", Muhammad Vorisning "Zubdat ul-hikoyat", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho", "Salomon va Ibsol", "Bahoriston", "Xaft avrang" asarlarlari, Badriddin Hiloliyning "Shohu gado", Vosifiyning "Bado'e ul-voqoe" kitoblarini, Kaykovusning falsafa va ahloq masalalariga bag'ishlangan "Qobusnoma" asarini, Husayn Voiz Koshifiyning "Ahloqi Muhsiniy", Imomiddin Fijduvoniyni "Mifot ut tolibin" kitoblarini fors tilidan o'zbekchaga mahorat bilan tarjima qilgan. Ogahiy quyidagi tarixiy kitoblarning muallifi bo'lgan: "Riyoz ud-davla" ("Davlat ishlari", 1825-1842), "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i", 1846-1855), "Jom'e ul-voqeoti Sultoni" ("Sultonlar voqealari to'plami", 1856-1865), "Gulshani davlat" ("Davlat gulshani", 1865-1872), "Shohidi iqbol" (1872). Ogahiy tarixga oid asarlar yaratib Munisning bu sohadagi an'alarini ham yanada rivojlantirdi va yuksaklikka ko'tardi. Munis va Ogahiy hamkorlikda yozgan "Firdavs-ul iqbol" asari va o'zining Xorazm tarixiga oid beshta asari faqat o'zbek xalqining tarixini o'rganish jihatdan ahamiyatli bo'lib qolmasdan, balki qardosh tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, rus, eron, afg'on xalqlarining tarixi, madaniyati, san'ati, urf-odatlarini, psixologiyasi, shu xalqlarning kelib chiqishi, tirikchiligi, manbai, qabilalarning tarixini o'rganishda boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ogahiyning qimmatli asarlaridan biri "Riyoz ud-davla" asari bo'lib, bu asar 1825-yildan 1842-yilgacha Xorazmda bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi va bu asar Olloqulixonga bag'ishlangan. Ogahiy o'zining "Riyoz ud-davla" asarini, shuningdek, quyida keltirilgan asarlarni yozar ekan, o'sha davr tarixchilarning an'anasiga muvofiq, hamd va na't bilan boshlaydi. Songra o'z hayoti haqida qisqacha gapirib, Olloqulixonni

maqtaydi. Undan sòng tarix ilmiga ta'rif berib, bu asarning yozilish tarixiga va buning yozilishiga sababchi bòlgan shaxslar haqida gapiradi. Sòngra voqealarni bayon etishni Olloqulixonning tuğilishidan boshlab, to vafotigacha Xorazmda bòlgan tarixiy voqealar haqida yozadi. Asarning muqaddimasida muallif juda kamtarlik bilan bu asarning yozilishi haqida gapiradi: “Erniyozbekning oğli Muhammad Rizo mirob taxallusim Ogahiy oʻz ahvolimni quyidagicha bayon etaman. Yoshlik choğlarimda boshimga har xil va turli-tuman tashvishlar tushdi. Har tarafdin boshimga balo toshi yoğdi. Hamisha kònglimga tinchsizlik va ta'bimda xavf hukm surar edi. Lekin jahondin yetgan har xil alamlardan olimlar va shoirlarning suhbatida bòlish bilan biroz tarqatar edim. Oʻz ahvoli haqida yuqorida zikr etilgan ma'lumotlarni keltirganidan sòng, bu asarning yozilishi haqida quyidagilarni keltiradi: “Bu asarni yozishga boshladim. Asar yozish davomida menga Muhammad Yoqub mehtar yordam berdi. Bu asarni “Riyozi ud-davla” nomi bilan tadim etdim.” Ogahiy tarixiy asarlar yozishda — tarixiy voqealarni, ijtimoiy-siyosiy hayotni, ichki-siyosiy holatlarni, xalq hayotini, urf-odatlarini, din, ma'naviyat, til va leksika jihatlarni ham keng yoritishga intilgan. Ogahiy bu asarni yozishda: oʻzidan oldingi Xorazm tarixchilari (Munis va boshqalar), saroy hujjatlari, voqealarning bevosita guvohlari ma'lumotlaridan foydalanganini ko'rsatadi. Bu — uning tarixchi sifatida manbaga suyanish, tekshirib yozish tamoyillariga amal qilganini bildiradi.

Asarning tuzilishi va mazmuni:

Asarda quyidagi jihatlar mavjud: Olloqulixon hukmronligi davrida sodir boʻlgan tarixiy voqealar: xonlik siyosati, harbiy yurishlar, ichki va tashqi munosabatlar, davlat boshqaruvi holatlari, saroy hayoti, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar bayoni. Xiva xonligi hududida yashagan turli millatlar (oʻzbek, turkman, qoraqalpoq va boshqalar) hayoti — ijtimoiy-maishiy, madaniy, urf-odatlar, xalq hayoti, til va leksika jihatlari haqida ma'lumotlar. Harbiy terminologiya va harbiy-harakatlar (juvongor, sipoh, okop, buljor, razvedka, sipahbad va h.k.) — ya'ni asar faqat faqat shohlar yoki faqat siyosatga oid emas, balki harbiy-hayot ham tarixiy jihatdan yoritiladi. Asarda leksik boylik, tilda tarixiy, ijtimoiy, ma'naviy, tasavvufiy tushunchalar — real voqealarga ham boʻlgan til va badiiy did bilan yondashuv mavjud.

Asarning mazmuniy ahamiyati:

“Riyozi ud-davla” — 19-asr boshlaridagi Xorazm (Xiva) tarixini bilish uchun asosiy manba hisoblanadi. Bu asar orqali nafaqat xonlik siyosati, balki xalq hayoti, ijtimoiy tuzilma, harbiy holat, urf-odat, til va madaniyat haqida ham ma'lumot olish mumkin. Asar — tarix + adabiyot uygʻunligi misoli: Ogahiy tarixiy hodisalarni faqat fakt sifatida emas, badiiy til, poetik iboralar, adabiy uslub bilan ham ifodalaydi.

Xulosa:

“Riyozi ud-davla” — Ogahiy tarixnavisligining eng pishiq namunalaridan biri boʻlib, unda: xronologik aniqlik, manbaviy ishonchlilik, badiiy tasvir mahorati,

voqealarni ko'rganchalik tasvirlash, siyosiy voqealarni tahlil qilish, yuksak til madaniyati singari jihatlar Ogahiyning Xorazm tarixnavislik maktabining yirik vakili sifatida ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammadrizo Ogahiy - "Riyoziy davlat" tarixiy asari.
2. Anvarjonov, S., Raximboyev, I. Ogahiy tarixiy asarlari va ularning ilmiy ahamiyati. — Interonconf ilmiy jurnali.
3. Ogahiy tarixiy asarlari va ularning bugungi tarixshunoslikdagi o'rnini. — Newjournal ilmiy jurnali.
4. Habibullaev, H. Xorazm tarixnavislik an'analari va Ogahiy ijodi. — Monografiya.